

“RAVShAN” DOSTONINI O’RGANISH IMKONIYATLARIGA DOIR

Shirinbek NURBOYEV
JDPU

Annotatsiya. Maqolada o’quvchilarning amaliy ko’nikmalarini o’zgartirish va rivojlantirish, o’quvchilarning qiziqishini oshirishiga xizmat qiladigan savol-topshiriqlar, shuningdek, xilma-xil mantiqli o’yinlar namunalari haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: darslik, o’quv dasturi, doston, omil, Ergash shoir, baxshi, savol-topshiriq, tahlil, qadriyat, syujet.

Savol-topshiriqlar xar bir o’quvchini affektiv (his qilish) va ichki his-hayajonlarini yuzaga chiqarish, ularni muayyan ma’noda to’lqinlantirib, faolligi yanada oshirishga xizmat qiladi. Yoki bo’lmasa, o’qituvchi dars mashg’ulotida psixomotor (yaratish) yo’nalishi bo’yicha o’quvchilarning amaliy ko’nikmalarini o’zgartirish va rivojlantirishni maqsad qilib, shogirdlariga dostondan olgan taassurotlari asosida biror rasm chizish, birorta she’r yozish, epik qahramonlarning tashqi ko’rinishini yasash yoki biror fikrnoma yozib kelish kabi individual topshiriqlarni berishi mumkin bo’ladiki, bularni bajarish uchun o’quvchidan doston matnini mustaqil o’qishni talab etadi. Dars mashg’ulotida dostondagi she’riy san’at va badiiy tasvir vositalariga alohida e’tibor qaratiladi, o’quvchilar doston muhokamasida matn mazmuni, asar qahramonlarining tabiat, xatti-harakatlari bilan bog’liq tavsiflarni tahlil etish ko’zda tutiladi. Xususan, dostondagi Go’ro’g’li, Misqol pari, Yunus pari, Hasanxon, Avazbek, Ravshan, Zulkumor, aka-uka kallar kabi epik qahramonlar tahlilida ularning muayyan xatti-harakatlariga, qobiliyati, tutumi, amal qilgan aqidalariga, imon-e’tiqodiga, xilma-xil urf-odatlar, va an’analarga o’quvchilarning diqqat-e’tibori qaratiladi. Tahlil davomida mazkur dostonning syujeti ishqiy-sarguzasht vokealarga bag’ishlanganligi, ijodkor xalqimiz qadimdan sof insoniy qadriyat bo’lmish muhabbatni qadrlab kelganligini ta’kidlaydi. Bu o’rinda o’qituvchi otabobolarimizning yuksak insoniy tuyg’ularga ega bo’lganliklari uchun har biri o’zlari farzandlari uchun munosib va sadoqatli yor tanlay olganliklarini, hayotdagi munosib yorga etishish yo’lida esa mardona kurashib, or-nomusini himoya qilganliklarini o’quvchilar ongiga singdirish maqsadga muvofiq. Bu yo’l bilan xalqimiz dunyo

xalqlariga axloqiy jihatdan yuksak namuna bo'lib kelganligiga o'quvchilar e'tiborini tortish juda katta samara berishi tayin. Dostondagi epik qahramonlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni amalga oshirganligini tahlil davomida alohida qayd etish zarur.

“Ravshan” dostonini o’rganishga bag’ishlangan mashg’ulotning navbatdagi bosqichida “*badiiy obraz va mubolag’aviy tasvir haqida nazariy ma’lumotlar*” berilishi o’quv dasturda belgilab berilgan. Bu mashg’ulotda o’qituvchi obraz, qahramon, personaj kabi tushunchalar, shuningdek, mubolag’a, tashbeh, kinoya kabi badiiy unsurlar to’g’risida ma’lumotlarni o’quvchilar ongiga singdirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu ma’lumotlar doston matniga asoslanib, tegishli o’rinlarda adabiy dalil sifatida keltirilib, tahlil qilinishi darsda o’quvchilar qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu borada o’quvchilarga quyidagi savol-topshiriqlar berilgani ma’qul:

- a) *Doston matnini o’qib, bosh va ikkinchi darajali obrazlarni, ijobiy va salbiy personajlarni toping, sinf daftarlaringizga ularni alohida-alohida tartibda yozing;*
- b) *Matndan hikmatli so’z, xalq maqollari va naql-matal darajasidagi xalqona so’zlarni toping va izohlang;*
- v) *Matnda qanday urf-odatlar ifodalangan va ularni alohida ko’chirib yozing;*
- g) *Matndagi tushunarsiz so’zlarni belgilang va lug’atlarini tuzing;*
- d) *Matndagi asosiy g’oyaga bo’lgan fikrlarni ajrating va ularni ma’noli qismlarga bo’ling va boshqalar.*

“Ravshan” dostonini o’rganishga bag’ishlangan o’quv mashg’ulotning oxirgi bosqichida darsning ko’rgazmali bo’lishini ta’minalash maqsadida o’qituvchi baxshi tomonidan kuylangan dostonning audio variantidan biror parchani o’quvchilarga yeshittirsa, ayni maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki xalq baxshisining jonli ovozini yeshitgan har bir o’quvchi yanada his-xayajonga to’lib, yanada faolligini oshiradi, epik qahramonlarning faoliyati va xatti-harakatlari to’g’risidagi tasavvurlarini boyitadi, doston syujetidagi, umuman, o’tmishdagi madaniy-maishiy turmush tarzi to’g’risidagi bilimlarini to’ldiradi. Natijada sinf o’quvchilarida doston va baxshi, uning jonli ijrosi xaqida mukammal bilimga ega bo’ladi. Shundan so’ng mashg’ulot oxirida o’quvchilarga

mustaqil o'qigan va sinfda o'rgangan doston matni bo'yicha o'zlarining taassurotlari yuzasidan fikrnomalardan yozib kelish vazifasi topshiriladi. Bulardan tashqari, umumta'lim maktablarida "Ravshan" kabi xalq dostonlarini o'rganish ishlarini muntazam, tizimli yo'lga qo'yish uchun sinfdan tashqari qo'shimcha darslar, faqultativ mashg'ulotlar va to'garaklar tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisi "Ajdodlar merosi" yoki "Ajdodlar tamadduni" deb nomlangan adabiy-badiiy to'garaklar orqali o'quvchilarning bu boradagi bilimlarini yanada oshirishi, ularni faollikka undashi mumkin.

"Ravshan" dostonini o'tishda o'qituvchi xilma-xil mantiqli o'yinlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Shulardan bittasini misol sifatida keltiramiz. O'qituvchi doston mantnidan olingan quyidagi jumlalarni biror varaqqa yoki kartochkalarga yozib, ularni sinfdagi xattaxtaga zamonaviy kompyuter vositalardan foydalangan holda joylaydi yoki, bo'lmasa, uning ekranida namoyish yetadi:

- a) "Umrida sovuq shamol yemagan bola";
- b) "G'amning loyiga botibman";
- c) "Eldan o'zgan chin suluvni sho'qib ildirsam, deb keldim";
- d) "Kuygan alvon-alvon so'zlar";
- e) "Men o'lsam, o'z elimdan kechmayman!";
- f) "Yosh va tajribasizligi tufayli dushman qo'liga tushdi";
- g) "Aziz boshing oyog'imga teng emas";
- h) "Dushman oldida bosh egmagan Ravshan otasini ko'rib yig'lab yubordi" va boshqalar.

O'qituvchi shogirdlaridan berilgan matnlarni biror jadval shakliga solish va qaysi sifatlar epik qahramonlardan qaysi biriga tegishli ekanligi, ular dostonning qaysi o'rinnarda qo'llanganligini aniqlash vazifasini uyda bajariladigan topshiriq sifatida tavsiya etiladi. O'quvchilar doston matniga qayta-qayta murojaat qilib, o'zlarini tayyorlagan ma'lumot-javoblarini bir-biriga solishtirib, umumlashtirgandan so'ng, yaxlit bir xulosaga keladilar. Bu usulning afzalligi berilgan vazifani mustaqil bajarganligida,

matnga murojaat qilganligida va doston syujeti va qahramonlari haqida to’liq bilim, ko’nikma va malaka hosil qilganligida ko’zga tashlanadi.

Har qanday dostondan belgilangan adabiy parchani sinfidan qatiy nazar o’qituvchining o’zi o’qib berishi maqsadga muvofiq. Endigina o’rganiladigan dostonni o’quvchilarga o’qitish mutlaqo to’g’ri emas. Negaki o’quvchilar dostonning tasvir yo’lini va til xususiyatlaridan behabar bo’lganligi, asardagi obrazlar ruhiyatini bilmaganligi uchun ham matnning jozibasini ochib bera olmaslikdan tashqari, asar haqida o’quvchilarda noto’g’ri tasavvur paydo qilib qo’yishi mumkin¹⁴². O’qituvchi asarni o’qishda darslikdan emas, balki dostonning o’zidan foydalansa, maqsadga muvofiq bo’ladi. Parcha o’qilayotganda til hususiyatlariga e’tibor qaratgan holda matnning butun badiiy jozibasini namoyon etishga erishish kerak. Bunda o’qituvchi dostonda badiiy tasvir vositalarining qo’llanilishiga, qahramonlar ruhiyatining berilishiga o’quvchilar e’tiborini qaratish kerak. Dostonni tahlil etishda, imkon boricha, o’quvchilar ko’proq jalg etilishi va faollashtirilishi kerak. Shunda ular badiiy asar matni ustida o’ylashga, uning jozibasini his etib, sehrli qirralarini topishga urinadigan bo’ladi. Masalan, so’z yuritayotganimiz “Ravshan” dostoni matni bilan tanishtirish, asar voqealari rivojini ta’minlaydigan badiiy omillarni belgilashda o’qituvchi o’z vaqtida sezdira bilishi zarur. Aks holda doston bolalarda shunchaki afsona, ertakka o’xshash taassurot qoldirishi mumkin.

FUNCTIONAL-PRAGMATIC CHARACTERISTICS AND CLASSIFICATION OF ADVERTISING

Dilnoza SOBIROVA

*Doctoral student (DSc) of the Department of
Uzbek Linguistics and Journalism
Bukhara State University*

Abstract. This article talks about the functions description of advertising. The main focus is on the functions performed by advertisements through the impact of advertising text on members of society. These points are supported by medical advertising texts.

¹⁴² Йўлдошев К., Қодиров В. Адабий сабоклар-7 синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 2005, 65-б.